

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA BOLA TILIDAN AYTIADIGAN  
HAZILLARNING LINGUA MADANIY TAHLILI

*Tursunpo`latova Ozoda Odil qizi*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,*

*Xorijiy til va adabiyoti magistratura yo`nalishi,*

*1-kurs magistranti, Tel: 91 587 28 38,*

*E-mail: ozodatursunpulatova23@gmail.com,*

*Ilmiy rahbar: Mamataliyeva Navbahor Xo`jamberdiyevna*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Rus-tili va*

*xorijiy tillar kafedrasi katta o`qituvchisi f.f.b.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi bola tilidagi hazillarni qiyosiy ravishda o'rganish orqali til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qilingan. Bola tili nafaqat muloqot vositasi, balki bolalarning dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim omil sifatida o'rganiladi. Maqolada hazillarni lingvistik, madaniy, pragmatik va psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilib, ularning bolalar nutqidagi rivojlanishdagi o'rni va tilga ta'siri ko'rsatilgan. O'zbek va ingliz tillaridagi bola hazillari o'rtasidagi farqlar, masalan, so'z o'yinlari, fonetik o'yinlar va polisemiyaning ishlatilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, har ikki madaniyatdagi til xususiyatlari va bolalar hazillari orqali madaniy qadriyatlar qanday aks etishi o'rganilgan. Maqola bolalar tilining rivojlanishini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

**Kalit so`zlar:** bola tili, hazillar, til va madaniyat, o'zbek tili, ingliz tili, semantika, pragmatika, fonetika, so'z o'yinlari, polisemya, madaniy qadriyatlar, kognitiv rivojlanish, psixolingvistika, bolalar nutqi, madaniy farqlar, an'anaviy qadriyatlar, individualizm, ijodiy tafakkur.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ДЕТСКИХ ШУТОК НА  
УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

**Аннотация:** В данной статье рассматривается сравнительный анализ детских шуток на узбекском и английском языках с целью показать взаимосвязь между языком и культурой. Детский язык является не только средством общения, но и важным элементом, отражающим мировоззрение детей и их культурные ценности. В статье шутки анализируются с лингвистической, культурной, прагматической и психолингвистической точек зрения, а также рассматривается их роль в развитии речи детей и влияние на язык. Анализируются различия между детскими шутками на узбекском и английском языках, такие как использование игр слов, фонетических игр и полисемии. Также

исследуется, как языковые особенности и детские шутки отражают культурные ценности обеих культур. Статья способствует более глубокому пониманию развития детского языка.

**Ключевые слова:** детский язык, шутки, язык и культура, узбекский язык, английский язык, семантика, прагматика, фонетика, игры слов, полисемия, культурные ценности, когнитивное развитие, психолингвистика, детская речь, культурные различия, традиционные ценности, индивидуализм, креативное мышление.

## LINGUA-CULTURAL ANALYSIS OF CHILDREN'S JOKES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

**Abstract:** This article aims to demonstrate the interconnection between language and culture through a comparative study of children's jokes in Uzbek and English. Children's language is examined not only as a means of communication but also as a crucial element that reflects children's worldview and cultural values. The article analyzes jokes from linguistic, cultural, pragmatic, and psycholinguistic perspectives, highlighting their role in the development of children's speech and their impact on language. The differences between children's jokes in Uzbek and English, such as the use of wordplay, phonetic games, and polysemy, are analyzed. Additionally, the article explores how language features and children's jokes reflect cultural values in both cultures. This study contributes to a deeper understanding of the development of children's language.

**Keywords:** children's language, jokes, language and culture, Uzbek language, English language, semantics, pragmatics, phonetics, wordplay, polysemy, cultural values, cognitive development, psycholinguistics, children's speech, cultural differences, traditional values, individualism, creative thinking.

**Kirish.** Bola tili, o`rganish jarayonida til va madaniyatning o`zaro aloqasini ko`rsatadigan muhim bosqichdir. Bolalar nutqi nafaqat muloqot vositasi, balki ular dunyoni qanday anglashi, qanday urf-odatlarini o`rganishi va qanday ijodiy fikrlashini ko`rsatib beradi. Bola tilidagi hazillar aynan tilning semantik, pragmatik va madaniy jihatlarining o`zaro bog`liqligini yoritishda muhim o`rin tutadi. Bola tilidagi hazillar til va madaniyat o`rtasidagi bog`liqlikni o`rganishda muhim vosita hisoblanadi. Raskin [1985] hazillarni semantik ziddiyatlar asosida shakllanishini ta`kidlaydi, bu esa bola nutqining ijodiy tabiati haqida ko`p narsalarni aytib beradi. Sababi hazillar kulgi manbaigina emas balki bolalar o`rtasidagi ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishda, ularning til va madaniyatiga bo`lgan munosabatini shakllantirish uchun ham muhim ahamiyatga egadir. O`zbek va ingliz tillaridagi bola tilidagi hazillarni qiyosiy o`rganish, ularning tilshunoslik va madaniyatshunoslik jihatlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

### Tahlil va tadqiqotlar.

Bola tilidagi hazillarni 2 tilda qiyoslab o`rgansak,ularni bir nechta jihatlariga bo`lib o`rgnaolamiz va bu tadqiqotda ularni birin ketin ochib berishga harkat qilamiz.

#### 1.Lingvistik xususiyatlari:

Bola tilidagi hazillar tilning o`ziga xos sintaksis,leksik va fonetik xususiyatlari orqali o`rganilgan.

Hazilning semantik mexanizmlari tahlil qilinib,o`zbek va ingliz tilidagi so`z o`yinlari va polisemya orqali hazil yaratish usullari o`rtasidagi farqlar va o`xshashliklar aniqlangan.[Raskin,1985;Azizova ,2023].

O`zbek tilida bolalar nutqidagi xalq og`zaki ijodining ta`siri o`rganilgan bo`lsa,ingliz tilida esa zamonaviy pop madaniyat elementlarining ko`p ishlatilishi qayd etilgan[Karimova,2022].

#### 2.Madaniy jihatlari:

Hazillar bolalarning dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi vosita sifatida tahlil qilingan.

Har ikkala til madaniyatida bolalar hazillari jamiyatning katta yoshlilar bilan munosabatiga taqlid qilish xususiyatini aks ettiradi [Attardo,1994].

Shuningdek o`zbek va ingliz bolalar hazillari orasida til va madaniyatga asoslangan farqlar mavjud.O`zbek bolalar hazillari xalq og`zaki ijodiga tayanib ,ko`proq an'anaviy qadriyatlar va xalqona iboralarga asoslanadi , bu esa bolalarning jamiyatdagi o`rinlarini va muloqotdagi rolini o`rganishga yordam beradi[Azizova,2023].

Masalan: - Bola:"Nima uchun qo`ylar xushmuomala?"

-Javob: " Chunki ular doim' mehmon' deb yurishadi!"

Bu hazil o`zbek tilidagi so`z o`yiniga asoslangan bo`lib," mehmon" so`zi qo`ylarni xushmuomalaligini ta`kidlaydi.Natijada hazil xalqona iboralarga asoslanib ,o`zbek xalqining hayot tarzini va tabiiy muhitini aks ettiradi.

Biroq ingliz hazillari ko`proq fonetik o`yinlar va ijodiy metaforalarga asoslangan bo`ladi,bu esa ingliz bolalarining individualizm va kreativligini ko`rsatadi.

Masalan: -Kid: " Why don't eggs tell jokes?"

-Answer: " Because they might crack up!"

Hazil fonetik o`yin,hamda polesimyaga asoslangan. "Crack" so`zi bir tomondan,"qirqib ketish" (eggs crack) va ikkinchi tomondan. "kulish"(crack-up) ma'nosini anglatadi.Hazil bolalar tasavvurlarini hamda so`zlarni qo`llash mahoratini namoyon qilmoqda.

#### 3.Pragmatik funksiyalari:

- Hazillar bolalar o`rtasida ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish,do`stona muhit yaratish va ziddiyatlarni yumshatish vositasi sifatida o`rganilgan[Qodirova, 2021].

- Bolalar o`zlariga tushunarsiz murakkab hodisalarni hazil orqali yengillashtiradi

va o`z his- tuyg`ularini ifoda etadi.

- Hazillar bolaning muloqotda pragmatik vaziyatlarni tushunish va ularga javob berish qobiliyatini rivojlantiradi [Crystal ,2003].

O`zbek tilida bu ko`pincha kollektivizm va an'anaviy qadriyatlarni aks ettirsa , ingliz tilida individualizmdan kelib chiqadigan ijodiy muloqot ko`proq namoyon bo`ladi.

#### 4. Psixolingvistik tahlil:

Hazillar bolalarning kognitiv rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bola so`zlarni noto`g`ri talaffuz qilib yoki qiziqarli metaforalar yaratib, o`z ijodiy imkoniyatlarini namoyish etadi. Bu orqali bola tilni o`rganish jarayonida muloqot qoidalarini ham egallaydi. Bolalar hazillari ularning psixolingvistik rivojlanishida muhim rol o`ynaydi, chunki hazillar bolalarning so`z boyligini oshirish, murakkab tushunchalarini o`zlashtirish va ijodiy tafakkurini shakllantirishga yordam beradi [Crystal,2003; Zwisky,1976].

#### 5. Qiyosiy tahlil:

- O`zbek va ingliz tillaridagi bola hazillari o`rtasidagi asosiy farqlardan biri ularning yaratilish usullari va asosiy mavzularidir. O`zbek bolalar nutqida turli xalqona rivoyatlar va maqollar ko`p uchrasa, ingliz bolalar nutqida esa so`zlarning fonetik o`yinlari keng tarqalgan [Azizova ,2023].

### Xulosa.

Bola tilidagi hazillar o`zbek va ingliz tillari hamda madaniyatlarini qiyosiy o`rganishda alohida ahamiyatga ega bo`lib. Ular faqat kulgi manbai emas, balki madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi va til rivojlanishiga yordam beruvchi muhim vosita hisoblanadi .O`zbek va ingliz tillaridagi hazillarni qiyosiy o`rganish natijalari shuni ko`rsatadiki, har bir madaniyatning o`ziga xos qadriyatlari va nutq xususiyatlari bolalar tilida yaqqol namoyon bo`ladi . Bu sohada chuqurroq tadqiqotlar til va madaniyat o`rtasidagi bog`liqlikni yanada kengroq tushunishga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizova, X. *Bola tili va xalq og'zaki ijodining o'zaro aloqasi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2023.
2. Attardo, S. *Linguistic theories of humor*. Mouton de Gruyter. 1994.
3. Crystal, D. *English as a global language*. Cambridge University Press. 2003.
4. Karimova, D. *Ingliz tilidagi bolalar hazillari: zamonaviy pop madaniyatining ta'siri*. Tashkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.2022.
5. Raskin, V. *Semantic mechanisms of humor*. D. Reidel Publishing Company. 1985.
6. Zwisky, A. *Psycholinguistic aspects of humor in children's speech*. Psychology Press. 1976.
7. Qodirova, Z. *Bola tilida hazillarning ijtimoiy va psixologik roli*. Toshkent: O'zbekistondagi ilmiy adabiyotlar nashriyoti. 2022.